

XOLID HUSAYNIYNING "MING QUYOSH SHU'LASI"
ASARIDA LAYLONING GENDER DISKRIMINATSIYAGA BO'LGAN
MUNOSABATI

Nazarova Gulbahor Pirmanovna

Buxoro davlat universitetining

Ingliz adabiyotshunosligi va tarjimashunoslik

kafedrasi katta professor o'qituvchisi

e-mail: g.p.nazarova@buxdu.uz

Davronova Ra'no Alisher qizi

Buxoro davlat universitetining

Ingliz adabiyotshunosligi va tarjimashunoslik

kafedrasi magistranti

e-mail: r.a.davronova@buxdu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada gender muammolari, ya'ni Xolid Husayniyning "Ming quyosh shu'lasi" romanida uchraydigan ayollarni kamsitish holatlari ko'rib chiqiladi. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi Layloning o'z jamiyatida mavjud bo'lgan tengsizlikka qanday munosabatda bo'lishini tahlil qilishdir. Ushbu tadqiqotning maqsadi Layloningadolatsizlikka qarshi chidamliligi va jamiyat taraqqiyoti haqidagi zamonaviy g'oyalarini o'rganishdir. Ushbu tadqiqotda qo'llaniladigan metodlar Afg'onistondagi ijtimoiy ahvolni ochib berishga yordam beradigan tavsify va madaniy-tarixiy yondashuvlardir. Qo'shimcha tadqiqot maqolalaridan tashqari, ushbu tadqiqotda asosiy ma'lumotlar manbai "Ming quyosh shu'lasi" romani hisoblanadi. Ushbu adabiy asar tahlili natijasida bosh qahramon Layloning shaxsiyati va munosabati afg'on ayollari hayotining kam ma'lum bo'lgan voqeliklariga oydinlik kiritib, shafqatsiz musibatlar qarshisida matonat va jasorat ko'rsatgani ma'lum bo'ladi. Bundan tashqari, ushbu tadqiqot qahramonlarning zo'ravonlik, itoatkorlik kabi gender muammolarida zolimlarga qarshi kurashish uchun ta'lim, voqelik va jismoniy

kuchdan foydalangan holda qanday hal qilishlari haqida umumiy ma'lumot beradi. Husayniy romanidagi bosh qahramon Layloning shaxsiyati va munosabatini o'rganish afg'on ayollari hayotida uchraydigan haqiqatlarga oydinlik kiritadi, shu bilan birga shafqatsiz qiyinchiliklarga qanday chidash kerakligini namoyish etadi.

Kalit so'zlar. Patriarxal jamiyat, nikoh, gender kamsitish, feminism, postkolonializm, zo'ravonlik, ta'lim, shaxsiyat

Abstract. This article examines the gender issues, namely discrimination in the novel “A Thousand Splendid Suns” by Khaled Hosseini. The focus of this article is to analyze how Laila deals with inequality existing in her community. The purpose of this research is to explore resistance of Laila against injustice and her modern ideas about developing the society. The methods used in this research are descriptive and cultural-historical approaches which help us to reveal social condition in Afghanistan. Besides additional research articles, the main data source in this study is the novel “A Thousand Splendid Suns”. After analyzing this literary work, it is found that personality and attitude of main character Laila sheds light on little-known realities of Afghan women's lives while celebrating their resilience and courage in the face of cruel adversity. Besides that, this research provides an overview of how the characters deal with gender issues such as violence, marginalization, obedience by using education, awareness, and physical strength to fight their oppressors. Examining the personality and attitude of main character Laila in Hosseini's novel sheds light on little-known realities of Afghan women's lives while celebrating their resilience and courage in the face of cruel adversity.

Key words. Patriarchal society, marriage, gender discrimination, feminism, postcolonialism, violence, education, personality

Аннотация. В данной статье рассматриваются гендерные проблемы, а именно дискриминация в романе Халеда Хоссейни «Тысяча сияющих солнц». Целью этой статьи является анализ того, как Лейла справляется с неравенством, существующим в ее сообществе. Целью

данного исследования является изучение сопротивления Лейлы несправедливости и ее современных идей о развитии общества. Методами, использованными в данном исследовании, являются описательный и культурно-исторический подходы, которые помогают раскрыть социальное состояние Афганистана. Помимо дополнительных научных статей, основным источником данных в данном исследовании является роман «Тысяча сияющих солнц». Проанализировав это литературное произведение, обнаруживается, что личность и мировоззрение главной героини Лейлы проливают свет на малоизвестные реалии жизни афганских женщин, прославляя их стойкость и мужество перед лицом жестоких невзгод. Кроме того, это исследование дает обзор того, как персонажиправляются с гендерными проблемами, такими как насилие, маргинализация, послушание, используя образование, осведомленность и физическую силу для борьбы со своими угнетателями. Изучение личности и отношения главной героини Лейлы в романе Хоссейни проливает свет на малоизвестные реалии жизни афганских женщин, одновременно прославляя их стойкость и мужество перед лицом жестоких невзгод.

Ключевые слова. Патриархальное общество, брак, гендерная дискриминация, феминизм, постколониализм, насилие, образование, личность

Kirish. Xolid Husayniy o‘zining “Ming quyosh shu’lasi” asarida ayol qahramonlarning og‘ir holatlari, azobli hayotlarini tasvirlash orqali adolatsiz jamiyatda ham muhabbat hukm surishini hamda hayotning asl qiyofasini ko‘rsatishga harakat qilgan. Bu asar roman voqealari ketma-ketligi orqali nafaqat urush dahshatlarini, balki tinchlikning ahamiyatini ham ochib beradi. “Ming quyosh shu’lasi” asarida Maryam va Laylo obrazi muallif tomonidan nikoh muammosi, erkak va ayol o‘rtasidagi munosabatlar, patriarchal jamiyat tizimi, Afg‘onistonda yashovchi ayollarning taqdiri va ularning bag‘rikengligini aks ettirish uchun tanlangan asosiy ayol qahramonlardir. Qahramonlarning umumiy xususiyatlari ularning murakkab ruhiy dunyosi, shuningdek, qiyinchiliklarga,

ularni o'rab turgan odamlar va jamiyat hayotiga bo'lgan munosabati orqali tasvirlangan. Ushbu asardagi ayollarni tahlil qilish va kuzatish bu ikki qahramon o'rtasida yaqin aloqani o'rganishga yordam beradi va o'quvchilarga ularning shaxsiyati, xatti-harakatlari va munosabatlarini chuqurroq tushunishga imkon beradi. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, qahramon Layloning gender kamsitish haqidagi qarashlarini ochib berishdan maqsad shuki, muallif o'sha paytdagi jamiyatdagi ba'zi adolatsizliklarni ko'rsatishni maqsad qilib olgan. Afg'onistonidagi 1960-yillardan 2000-yillarning boshigacha bo'lgan keskin siyosiy o'zgarishlar bo'layotgan bir paytda "Ming quyosh shu'lasi" asari ko'pxotinli nikoh bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar, Laylo kabi ayollarning notinch hayoti va ruhiy holatini tasvirlaydi. Laylo Qobuldag'i ziyoli, ilg'or oilaning qizi bo'lib, u har qadamda ayol muxtoriyatini inkor etuvchi chuqur patriarchal jamiyatga qarshi kurashishga va undan qochishga harakat qiladi. Uning adolatsizliklarga qarshilik ko'rsatishi afg'on jamiyatni va madaniyatida ayollarning rolini ko'rsatib beradi. Bu roman Afg'onistonidagi gender munosabatlariga oid chuqur sotsiologik tushunchalarini kitobxonga yetkazib berishga harakat qiladi.

Metodlar va materiallar. Ushbu tadqiqotda qahramonlar va hodisalarini o'rganishga qaratilgan tavsifiy usulidan foydalanildi, shuningdek, ishonchli manbalarni o'quvchilar bilan bo'lishish maqsadida tarixiy-madaniy usul ham ishlatildi. Afg'onistonning geosiyosiy va madaniy konteksti "Ming quyosh shu'lasi" asari uchun juda muhim bo'lganligi sababli, tadqiqot tarixiy voqealarini chuqur o'rganishga e'tibor qaratadi. Asosiy voqealar Afg'onistonning 1970-yillardan boshlab siyosiy tarixi, hokimiyatdagi turli rejimlar va ularning ayollarga bo'lgan munosabatini ko'rib chiqish, shuningdek, ushbu davrdagi afg'on ayollarining jamiyat va madaniyatdagi rolini tahlil qilishdan iborat.

Tahlil jarayonida ikkita nazariy jihatlar - feminizm va postkolonializm tushunchalariga ahamiyat berildi. Feministik jihatdan ayollar xatti-harakati, gender kamsitishning ularga ta'siri va Layloning nohaqliklarga qarshi kurashi tanqidiy o'rganildi. Postkolonial nazariya esa Afg'oniston siyosiy hukumati

ostidagi holatni tushunish va xorijiy kuchlar ta'sirini tahlil qilishda vosita bo'lib xizmat qiladi.

"Ming quyosh shu'lasi" romani [4, 253] ma'lumotlar yig'ish va ularni o'rghanish uchun asosiy manba hisoblanadi. Ikkinchi darajali manbalar esa ushbu asarda aks ettirilgan turli mavzularni yoritib berish uchun yozilgan ko'plab maqolalardir. Fotime Mansurobodiy va Amin Karimniya roman tarjimasining lug'aviy ma'nolarini o'rgangan [3,777-786], Pipin Puspitasari va boshqalar esa bu adabiy asarda ifodalangan an'anaviy va zamonaviy madaniyatlar o'rtasidagi ziddiyat haqida ma'lumot bergan [5,13]. L.Agustina asosan, ayollarning patriarxatga qarshi kurashiga[1,20], E.Shabanirad va E.Seyfi kabi tadqiqotchilar esa mustamlakachilikdan keyingi feminizm tahliliga[2, 241-254] o'z e'tiborlarini qaratganlar. Ammo bu tadqiqot maqolasida faqat bitta xarakter- Layloning gender kamsitishlarga qarshi kurashi tahlil qilinadi.

Laylo gender diskriminatsiyasining qanday turlaridan aziyat chekadi?

1. Jismoniy zo'ravonlik. Rashid Layloning zo'ravon eri. Xotinlarini yoqtirmasa yoki kayfiyati yomon bo'lsa, u xotinlarni kaltaklaydi, uradi, bo'g'adi. Agar Laylo ba'zi xatolar qilsa, jazo sifatida mushtumzo'rlik qiladi. Bundan tashqari, erkaklar zo'ravonlik nazoratni ushlab turish, nizolarni hal qilish va g'azabni ifoda etishning maqbul usuli ekanligiga ishonishadi [6, 13].

2. Ayollarini turmushga chiqishga majburlash. Laylo istamagan holda o'zi yoqtirmagan erkakka majburan turmushga chiqqan ko'plab afg'on ayollarining timsolini aks ettiradi. Laylo kimsasiz va homilador bo'lgani uchun turmushga chiqishga majbur bo'ladi. Bu nikoh haqiqatan ham Laylo uchun azoblarga to'la hayotni ta'minlab berdi, chunki u butun umrini o'zi sevmaydigan odam bilan o'tkazishi kerak edi. Bu holat ayollarning o'z hayotlarini nazorat qila olmasliklari va ularning erkaklar xohish-istiklariga majburan bo'ysunganliklaridan dalolat beradi [6, 14].

3. Ayollarning cheklangan haq-huquqlari. Ayollar erkak hamrohlari bo'lmasa ko'chaga chiga olmaydi va bu hukumat tomonidan taqiqlangan.

Tolibonlar ayollarning yolg‘iz yurganini ko‘rsa, ularni qattiq kaltaklab, uylariga jo‘natadi. Bu holatni Layloning Rashidning farzandiga beparvoligi tufayli qizi Azizaning maktab-internatiga borishida qiyinchiliklarga uchraganida kuzatish mumkin [6, 14-16].

4. Sog'liqni saqlash muassasasidan chetlatilish. Afg'onistondagi ayollar uchun kasal bo'lish katta muammo hisoblanadi, chunki ular kasalxonasi va poliklinika kabi sog'liqni saqlash muassasalariga kiritilmaydi. Laylo farzandini dunyoga keltiradigan paytda tibbiy xizmatdan foydalana olmaydi, chunki shifoxonalar faqat erkaklarga, ularning dardiga shifo topishga mo'ljallangan edi. Shunday vaziyatda, Laylo operatsiyada hech qanday og'riq qoldiruvchi vositalarni qabul qilolmaydi, chunki ayollar uchun mavjud bo'lgan yagona shifoxona bemorlarni hech qanday dorilar bilan ta'minlay olmaydi [6,15].

5. Qizlar uchun ta'lism olishni taqiqlash. Hikoya boshida qizlar uchun ta'lim taqiqlanmagan, chunki o'sha paytda Afg'onistonda Sovet Ittifoqi hukmronligi o'rnatilgan edi. Oradan bir necha yil o'tib, Tolibonlar Qobul ustidan nazoratni qo'lga kiritgach, qizlar haqiqatan ham maktabga borolmaydi va hattoki uyda ta'lim ololmaydi. Tolibon kitoblar, haykallar, she'rlar, rasmlar, televizorlar va muzeylar kabi ta'lim bilan bog'liq barcha narsalarni yo'q qiladi. Agar ayollar o'qishni xohlasalar buni o'z uylarida tinchgina qilishlari kerak edi, chunki agar Tolibonlar bundan xabar topishsa, qizlarni kaltaklashadi va qo'llaridagi barcha kitoblarni yoqib yuborishadi. Masalan, Layloning otasi unga dunyoviy va diniy bilimlarni o'z uyida bergen. Ma'lumotli bo'lism Layloning o'z huquqlari haqida tushunchaga ega bo'lishiga yordam beradi. Shuningdek, u patriarchal jamiyatda ayollarni bo'ysunish, kamsitish va hatto zulmga uchraganlik sabalarini biladi. Oxir-oqibat, Maryam ham Laylodan ko'p narsalarni o'rganganidan so'ng bir qancha mustaqil fikrga ega bo'ladi[6, 16].

6. Ayollarning itoatkorligi. Jamiyat ayollarning itoatkor bo'lism va erkaklar aytgan narsaga bo'ysunishni shakllantirishda davom etmoqda. Erkaklarning ustunligi ularning kuchi va hukmronligini oshirish uchun xizmat qiladi. Boshqa tomondan, ayollar ijtimoiy jihatdan erkaklarning buyruqlariga

bo'y sunish uchun yaratilgan degan tushuncha mavjud bo'lган. Laylo erining buyrug'ini bajarish va xohishini rad etmaslik uchun burqa nomli yopinchiq kiyishga majbur bo'ladi.

Muhokama. Quyida keltirilgan romandan parchalar Layloning gender tengsizlikka bo'lган munosabati bilan bog'liq.

"I know you're still young, but I want you to understand and learn this now, he said. Marriage can wait, education cannot. You're a very, very bright girl. Truly, you are. You can be anything you want, Laila I know this about you. And, I also know that when this war is over, Afghanistan is going to need you as it's men, maybe even more. Because a society has no chance of success if it's women are uneducated, Laila no chance." [4, 92]

Ko'riniб turibdiki, Layloning otasi turmush qurishdan ko'ra ta'lim olish muhimligini ta'kidlaydi. Uning otasi, shuningdek, mamlakat kelajagi ayollarning o'qimishliligiga bog'liq ekanligini tushuntirdi. Bu esa Layloga ayollar va erkaklar har qanday holatda ham teng ekanligini tushunish imkonini beradi. Uning fikricha, savodxonlik bilan demokratiya yo'q jamiyatni o'zgartirish va erkaklar bilan teng huquqlarga ega bo'lган ayollar rolini oshirish mumkin.

"Tell me what's going on!" Laila said. She had propped herself up on her elbows. The doctor took a breath, then told Laila that the hospital had no anesthetic. "But if we delay, you will lose your baby". "Then cut me open," Laila said. She dropped back on the bed and drew up her knees. "Cut me open and give me my baby." [4, 212-213]

Bu parcha esa Layloning jasorati va qiyin damlarda qanchalik tavakkalchi ekanligini ko'rsatadi. Bu misol erkaklar kasalxonasiga nisbatan yaxshi sharoit bo'lмаган, dori-darmon yetishmaydigan shifoxonalar Layloning o'z farzandini dunyoga keltirish qarorini o'zgartira olmasligidan dalolat beradi. Bu bilan u hukumat tomonidan cheklangan sharoitlarga e'tibor bermay, bolasi taqdiri uchun kurashayotgan kuchli ayol timsolini ochib beradi.

It was the first time she'd struck anybody, discounting the playful punches she and Tariq used to trade. Laila watched the arch of her closed fist, slicing

through the air, felt the crinkle of Rasheed's stubbly, coarse skin under her knuckles. It made a sound like dropping a rice bag to the floor. She hit him hard. The impact actually made him stagger two steps backward". [4, 219]

Bu parcha Layloning Rashid uni kaltaklagan paytda unga qanday hujum qilganini tasvirlaydi. U o'z fikr va g'oyalarini shafqatsiz eriga aytishdan qo'rqlaydi.

Xulosa. Ushbu maqolada Laylo obrazi, uning gender kamsitishlaridan omon qolishga urinishlari va tengsizliklarga qanday munosabatda bo'lganligi chuqur tahlil qilindi. Yuqoridagi misollarga tayangan holda turli xil gender muammolari - zo'ravonlik, itoatkorlik hamda turli cheklovlarini asarni o'qish davomida kuzatish mumkin. "Ming quyosh shu'lasi" romanida Laylo ta'lim olish, ogohlilik va jasorat yordamida gender masalalarini hal qilishda o'zida kuch topa olgan qahramon desak mubolag'a bo'lmaydi. Eri Rashidga qarshi turish uchun jismoniy kuch ishlatishdan tashqari, u zolim oldida o'z fikrlarini erkin ifoda eta olgan ayol obrazidir. Garchi Laylo eriga bo'ysunib, patriarchal jamiyat tuzog'iga tushib qolgan bo'lsa ham, adolatsiz jamiyatga qarshi kurashishni to'xtatmaydi. Shuningdek, Tolibonlar tomonidan yaratilgan qoidalar erkaklardan ko'ra ayollarga nisbatan azobli cheklovlar qo'yganligini Layloning hayoti orqali kuzatish mumkin.

REFERENCE:

1. Agustina, Laili (2012) Against Patriarchy In Khaled Hosseini's A Thousand Splendid Sung (2007) Novel: A Feminist Approach. Skrip thesis, Universitas Muhammadiyah Surakarta.
2. Ensieh Shabanirad and Elham Seifi. Postcolonial feminist reading of Khaled Hosseini's A Thousand Splendid Suns International Journal of Women's Research Vol. 3, No. 2, Autumn & Winter 2014-15
3. Fatemeh Mansourabadi and Amin Karimnia. The impact of ideology on lexical choices in literary translation: A case study of A Thousand Splendid Suns/ Procedia - Social and Behavioral Sciences 70 (2013)
4. Hosseini, K. (2007). A thousand splendid suns. New York: Penguin Group.

5. Puspitasari, Pipin, Drs. M. Thoyibi, M.S. and , Titis Setyabudi, S.S., M.Hum. (2013) Conflict Between The Traditional And Modern Cultures In Khaled Hosseini's A Thousand Splendid Suns Novel (2007): Sociological Approach. Universitas Muhammadiyah Surakarta, 2 Maret 2013
6. Yuni Kartika Harnum and Muftihaturrahmah Burhamzah. Gender issues in Khaled Hosseini's novel A Thousand Splendid Suns. Journal of English Literature and Linguistic Studies. Vol 2 (3) 2023 E-ISSN: 2548-4575